

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov</b>	
O'zbekistonda <i>Berberis integerrima</i> bunge tabiiy resurslarining zamonaviy holati .....	132
<b>M.N.Valiyeva, G.S.Mirzayeva, D.M.Musayev</b>	
O'zbekistonda Reduviidae oilasiga mansub (Heteroptera) yirtqich qandalalarning o'rjanilish holati .....	142
<b>M.B.Zohidova, G.M.Zokirova</b>	
Xanthogaleruca luteola (Müller, 1766) barg qo'ng'izining mahalliy ekotizimlardagi tarqalishi va avlod almashinushi.....	148
<b>M.X.Akbarova, Z.A.Yusupova</b>	
Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi shonli tarixi.....	153
<b>O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev</b>	
Shohimardonsov va So'x daryolarida tarqalgan <i>Schizothorax eurystomus</i> Kessler, 1872 morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyoziy tahlili .....	160
<b>M.T.Izag'aliyev, G.Yuldashev, B.M.Qo'chqorov, I.M.Aktamov</b>	
Tipik bo'z tuproqlar ekologik transformatsiyasiga sement sanotining ta'siri .....	167
<b>D.T.Xo'jayev</b>	
<i>Nerium oleander</i> L. "Hardy red" navining laboratoriya sharoitida urug' unuvchanlig .....	173
<b>M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov</b>	
G'arbiy Farg'ona hududidagi Heteroptera: Pentatomidea qandalalarining biotsenotik aloqlari va agroekotizmlardagi ahamiyati .....	177
<b>D.B.Fayziyeva B.M.Sheraliyev</b>	
Qoratog' va to'palang daryolarida tarqalgan <i>Iskandaria pardalis</i> (Turdakov, 1941) morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyoziy tahlili .....	184
<b>M.R.Shermatov, D.A.Almatova, B.D.Abdikaxorov</b>	
<i>Cidaria distinctata</i> Staudinger, 1892 (Lepidoptera: geometridae, larentiinae)ning Farg'ona vodiysida qayd etilishiga oid.....	190
<b>Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov</b>	
<i>Acyrtosiphon pisum</i> (Harris, 1776) shirasining morfo- ekologik xususiyatlari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	194
<b>O.T.Sobirov, X.R.Kaxxorova, S.A.Tojimamatova, O'.Sh.Turg'unova</b>	
<i>Lepidosaphes</i> avlodni bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili .....	201
<b>F.N.Mingboyev, S.M.Xaydarov, M.V.Obidov</b>	
Mikrosuvo'tlari uchun ozuqa muhitini tayyorlash texnologiyasi ( <i>Ankistrodesmus</i> misolida).....	211
<b>D.R.Botirova, M.V.Obidov, D.R.Egamberdiyeva</b>	
Evaluating substrate types for enhanced hydroponic strawberry yield and quality.....	216

## QISHLOQ XO'JALIGI

<b>G'.Yuldashev, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov</b>	
Sho'rxoklarning singdirish sig'imi va kationlar tarkibining o'zgarishi .....	221
<b>B.P.Rasulzoda, Z.A.Джаббаров</b>	
Взаимоотношение длины междуузлий, число стеблевых узлов и продуктивность колоса у сортов мягкой пшеницы .....	226
<b>O.X.Sindarov</b>	
Issiqxona sharoitida turli xususiyatlarga ega plyonkalarning qulupnay navlari barglaridagi biologik o'zgarishlarga ta'siri .....	232

## GEOGRAFIYA

<b>Y.I.Ahmadaliyev, D.X.Yuldasheva</b>	
Farg'ona viloyatida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari .....	237
<b>E.G'.Maxkamov</b>	
Hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni geoekologik jihatdan baholash usullari .....	246
<b>S.M.Xursanov</b>	
Surxondaryo viloyatida aholi tashqi migratsiyaning hududiy tarkibi .....	249
<b>Z.N.Tojieva, K.B.Omanova</b>	
Jizzax viloyati mehnat migratsiyasining ba'zi jihatlari .....	257



УО'К: 911.5/9

## HUDUDIY TURISTIK-REKREATSION TIZIMLARNI GEOEKOLOGIK JIHATDAN BAHOLASH USULLARI

### МЕТОДЫ ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТУРИСТСКО- РЕКРЕАЦИОННЫХ СИСТЕМ

### METHODS FOR GEOECOLOGICAL ASSESSMENT OF REGIONAL TOURIST AND RECREATIONAL SYSTEMS

**Maxkamov Elyorbek G'ayratovich** 

Farg'ona davlat universiteti, Geografiya kafedrasи dotsenti, PhD

#### *Annotatsiya*

*Maqolada hududiy turistik-rekreatsion tizimlar shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari, hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni tashkil etish va ular samaradorligini baholash usullari, turistik-rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanishda hududiy turistik-rekreatsion tizimlarning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni baholash usullari tahlil qilingan.*

#### *Аннотация*

*В статье исследуются теоретико-методологические основы формирования и развития региональных туристско-рекреационных систем, методы организации региональных туристско-рекреационных систем и оценки их эффективности, роль и значение региональных туристско-рекреационных систем в эффективном использовании туристско-рекреационного потенциала. Также были проанализированы методы оценки региональных туристско-рекреационных систем.*

#### *Abstract*

*The article studies the theoretical and methodological foundations of the formation and development of regional tourist and recreational systems, methods for organizing regional tourist and recreational systems and assessing their effectiveness, the role and importance of regional tourist and recreational systems in the effective use of tourist and recreational potential. Also, methods for assessing regional tourist and recreational systems are analyzed.*

**Kalit so'zlar:** *hududiy turistik-rekreatsion tizim, turizm, rekreatsiya, geoekologik baholash, analitik ierarxiya, integral baholash, turistik sig'imi ni aniqlash, barqarorlik indikatorlari tizimi, GIS, klaster.*

**Ключевые слова:** *региональная туристско-рекреационная система, туризм, рекреация, геоэкологическая оценка, аналитическая иерархия, интегральная оценка, определение туристской емкости, система показателей устойчивости, ГИС, кластер.*

**Key words:** *regional tourist and recreational system, tourism, recreation, geoelectrical assessment, analytical hierarchy, integral assessment, determination of tourist capacity, sustainability indicator system, GIS, cluster.*

#### **KIRISH**

Turizm va rekreatsiya sohasi jahon iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Bu soha bir tomondan madaniy meros, tabiiy resurslar va rekreatsion imkoniyatlardan oqilona foydalanishni talab qilsa, ikkinchi tomondan aholi farovonligini oshirish, yangi ish o'rinnari yaratish hamda infratuzilmani rivojlantirish uchun kuchli lokomotiv vazifasini bajaradi. Hududiy turistik-rekreatsion tizimlar (HTRT) ana shu jarayonni kompleks tarzda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Turistik-rekreatsion tizimlarning hududiy tashkil etish shakllari, ularning shakllanish qonuniyatları va uslubiy asoslarini nazariy jihatdan o'rganish amaliyotda tizimlarni samarali rejalashtirish va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy turistik-rekreatsion tizimlarning samaradorligini baholash – ushbu tizimlardan kutilayotgan natijalarga qanchalik erishilayotganini aniqlash, mayjud salohiyatdan foydalanish darajasini belgilash hamda barqaror rivojlanish yo'lida strategik qarorlar qabul qilish uchun zarurdir. Samaradorlikni baholash orqali turizm sektorida iqtisodiy foya, ijtimoiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlash bo'yicha aniq ko'rsatkichlar va mezonlar ishlab chiqiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODLAR

Turizmni geografik va ekologik jihatdan o'rganish va rivojlantirishning ilmiy uslubiy asoslari, baholash mezonlari S.Williams (1998, 2009), C.M.Hall, S.J.Page (2002, 2014), Charles R.Goeldner, J.R.Brent Ritchie (2009), Robert W.Wyllie (2011), R.W.Butler (2011), S.Becken (2014, 2021), R.Buckley (2018), B.Lane, B.Bramwell (2019), N.S.Mironenko (1981, 1998, 2006), K.Jumashev (1990), A.G.Nizamiyev (1998), S.R.Yerdavletov (2000), L.Y.Majar (2008, 2009), V.I.Krujalin, N.S.Mironenko, N.V.Zigern-Korn, N.V.Shabalina (2014), A.Nigmatov (2007), M.Usmanov (2005, 2024) va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hududiy turistik-rekreatsion tizimlar – bu muayyan bir makondagi tabiiy, madaniy, tarixiy va iqtisodiy resurslarni birlashtirib, ulardan turizm va rekreatsiya sohasida kompleks ravishda foydalanish imkonini beradigan integratsiyalashgan tizimdir. Ushbu tizim turli darajalarda (milliy, mintaqaviy, mahalliy) boshqaruv, hamkorlik va rejalashtirish mexanizmlari orqali shakllanib, izchil rivojlanib boradi. Natijada, nafaqat sayohatchilar uchun sifatlari xizmatlar taklif etiladi, balki mahalliy aholi uchun ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy foya keltiradi.

HTRT omillarini chuqur tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishda turli baholash usullaridan foydalaniladi. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan usullar keltirilgan:

**SWOT tahlil (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats).** Kuchli tomonlar, zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash orqali hududning turistik-rekreatsion salohiyati xolis baholanadi. Rejalashtirish bosqichida eng oddiy va ommabop usullardan biri bo'lib, turizm strategiyasini ishlab chiqishda o'ziga xos "diagnostika" vazifasini o'taydi.

**PESTEL tahlil (Political, Economic, Social, Technological, Environmental, Legal).** Hududning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy muhitini baholash hisoblanadi. Yirik sarmoyadorlar yoki davlat organlari turizm siyosatini rejalashtirayotganda makromuhit omillarini hisobga olish uchun qulay va turizmda global tendensiyalarni inobatga olishga yordam beradi.

**GIS asosidagi ko'p mezonli tahlil (Multi-Criteria Decision Analysis – MCDA).** Geografik axborot tizimlari (GAT) bazasida turli mezonlar (masalan, transport infratuzilmasi, landshaft xususiyatlari, ekologik cheklar, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy ko'rsatkichlar) birlgilikda baholanadi. Hududning turistik-rekreatsion salohiyatini geografik kartaga asoslangan holda vizual va raqamli baholash imkonini beradi. Hududlarni rayonlashtirishda, xususan, tabiiy hududlarda turizm infratuzilmasini joylashtirishda juda muhim hisoblanadi.

**Turistik sig'imi ni aniqlash (Tourism Carrying Capacity).** Hududga bir vaqtning o'zida kelishi mumkin bo'lgan turistlar sonini atrof-muhitga zarar yetkazmasdan qabul qilish qobiliyatini aniqlash hisoblanadi. Bunda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni inobatga olgan kompleks ko'rsatkichlar belgilanadi. O'ta ommabop bo'lib ketgan turistik zonalarda sayyoohlар oqimini cheklash, turizm bosimini muvozanatlash, mahalliy aholi bilan mojarolar kelib chiqishining oldini olishda yordam beradi.

**Barqarorlik indikatorlari tizimi (UNWTO va WTTC tavsiyalari).** Turistik-rekreatsion tizimlarni baholashda ko'p hollarda barqaror turizm indikatorlari joriy etiladi. Bu indikatorlar uch yo'nalishni qamrab oladi: ekologik (masalan, suv va energiya iste'moli, chiqindi darajasi, tabiiy merosning saqlanishi), iqtisodiy (turizmnинг YalMDagi ulushi, mahalliy biznes daromadi, mavsumiylik) va ijtimoiy-madaniy (yangi ish o'rnlari, mahalliy aholi turmushiga ta'sir, madaniy meros obidalarning holati). Indikatorlar tizimi muntazam monitoring va hisobot berish uchun qulay vosita bo'lib, muammolarni erta aniqlash va tuzatish choralarini ko'rishga yordam beradi. Davlat va mintaqaviy darajada turizm siyosatini monitoring qilish, solishtirma tahlil yuritish va strategik rivojlanish bo'yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

**Klaster tahlili.** Hududiy turistik obyektlar, xizmat ko'rsatish korxonalari, infratuzilma subyektlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida birlashtirishni tahlil qilishda foydalaniladi. Bunda mintaqada bir xil yo'nalish yoki mavzuda ixtisoslashgan turistik klasterlar (masalan, tanishuv turizm, rekreatsion-sog'lomlashdirish turizmi, ekoturizm, agroturizm klasteri) tashkil etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishiladi.

**Ko'p mezonli integral baholash.** Hududning turistik salohiyatini bir vaqtning o'zida bir nechta mezonlar orqali baholash bo'lib, bu usulda tabiiy-geografik resurslar, madaniy meros, infratuzilma,

ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar kabi omillar majmuaviy ravishda hisobga olinadi. Baholash odatda balli tizim yoki analitik ierarxiya jarayoni kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv hududlar o'tasida solishtirma tahlil qilish va eng istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

### XULOSA

Yuqorida keltirilgan usullar bir-birini to'ldiradi va kompleks ravishda qo'llanganda eng to'liq baho olishga yordam beradi. Masalan, hududning turistik salohiyatini aniqlashda ko'p mezonli baholash va GIS tahlili natijalari birgalikda ko'rinishi mumkin – avvalo hududning umumiy integral reytingi chiqarilib, so'ngra geografik kartada kuchli va zaif zonalar ko'rsatiladi. Barqarorlik indikatorlari esa vaqt o'tishi bilan monitoring uchun qulay – u orqali yilma-yil o'zgarishlar tahlil qilinadi. Sig'im tahlili esa cheklovlarini belgilab beradi va bu ma'lumot rejalshtiruvchilarga turistlar oqimini mo'tadil ushlab turish choralarini ishlab chiqishda samarali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy turistik-rekreatsion tizimlarning muvaffaqiyatlari tashkil etilishi uchun geografik, ekologik va iqtisodiy omillarni har tomonlama hisobga olish zarur. Global tendensiyalar – barqarorlik, raqamli transformatsiya, mahalliy hamjamiyat ishtiroti va boshqalar – bu omillarning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ilmiy adabiyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, zamонавија yondashuvda hududiy turistik-rekreatsion tizimlar barqaror rivojlanish prinsiplari asosida rejalshtirilib, innovatsion boshqaruv usullari bilan mustahkamlanishi talab etilmoqda.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Coccossis H., "Sustainable Development and Tourism in Small Islands: Some Lessons from Greece" Anatolia-An International Journal of Tourism and Hospitality Research Vol. 12 (1) 2001, pp. 53-58.
2. Ghazinoory, S., Abdi, M., & Azadegan-Mehr, M. (2011). SWOT Methodology: A State-of-the-Art Review for the Past, a Framework for the Future. *Journal of Business Economics and Management*, 12(1), 24–48.
3. Gretzel, U. (2011). Intelligent Systems in Tourism: A Social Science Perspective. *Annals of Tourism Research*, 38(3), 757–779.
4. Honey, M. (2008). Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? Island Press.
5. Johnson, G., Scholes, K., & Whittington, R. (2011). Exploring Strategy (9th Edition). Pearson Education.
- (PEST(EL) tahlil usulli bo'yicha.)
  6. Murphy, P. E. (2013). *Tourism: A Community Approach*. Routledge.
  7. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. *Harvard Business Review*, 76(6), 77–90.
8. Richards, G. (2018). Cultural Tourism: A review of recent research and trends // *Journal of Hospitality and Tourism Management*, Volume 36, September 2018, Pages 12-21
9. UNWTO (2004). Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations: A Guidebook. World Tourism Organization.